

**OLAM TASVIRINING KOGNITIV PARADIGMADA AKS ETISHI
ОТРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ВСЕЛЕННОЙ В КОГНИТИВНОЙ ПАРАДИГМЕ
REFLECTION OF THE IMAGE OF THE UNIVERSE IN THE COGNITIVE
PARADIGM**

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna, f.f.f.d FarDu o'qituvchisi

dilshoda332@prof.fardu.uz

Abdullayeva Sevinch Akmaljon qizi, FarDu 2-kurs magistranti

sevinchmarupova2000@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola, avvalo, olam tushunchasi, olam manzarasi tasviri va olam manzarasining kognitiv paradigmadagi ta'riflarini keltirib o'tadi. Shuning bilan birga, tilning jamiyatdagi ahamiyati va o'rni, uning olam va turli predmetlar bilan bog'lanishi, insoniyatning dunyoni tushunishidagi ahamiyati haqida so'z yuritadi. Olam manzarasini ifodalashda birikmalar, maqollarning o'rni haqida qisqacha fikr yuritadi.

Kalit so'zlar: kognitivlik, olam manzarasi, til, manzara, obraz, fiziologik, madaniyat, turmush-tarz.

Аннотация: Прежде всего, в данной статье представлены определения понятия мира, образа картины мира и определения картины мира в когнитивной парадигме. В то же время говорится о важности и месте языка в обществе, его связи со Вселенной и различными объектами, а также о значении человечества в понимании мира. Кратко раскрывает роль сочетаний и пословиц в выражении картины мира.

Ключевые слова: познание, мировоззрение, язык, ландшафт, образ, физиология, культура, образ жизни.

Abstract: First of all, this article presents the definitions of the concept of the world, the image of the world view, and the definition of the world view in the cognitive paradigm. At the same time, it describes the importance and place of language in society, its connection with the universe and various objects, and the

importance of humanity in understanding the world. Briefly reveals the role of combinations and proverbs in expressing the view of the world.

Key words: cognition, world view, language, landscape, image, physiological, culture, lifestyle.

Olam mavzusiga to'xtalishdan avval, paradigma tushunchasi nima ekanligi va uning tilshunoslik fanida qanday ahamiyatga ega ekanligini bilib olmog'imiz darkor.

Paradigma so'zi juda keng sohalarda qo'llaniladi va barchasida o'ziga xos ma'no kasb etadi. Asli kelib chiqishi yunoncha „namuna, andoza“ degan so'zdan olingan bo'lib, bugungi kunda ilmiy yutuqlar majmui, to'plami ma'nosini anglatuvchi terminda qo'llanilmoqda. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Ilmiy namunani, universal qonunlarni konkret hodisalarga tadbiq etish asosida fan rivojlanadi. Umuman olganda, paradigmani ilmiy tan olingan va qaysidir davrda ilmiy tadqiqot uchun yo'naltirilgan bir yoki bir nechta fundamental yig'indisi, deb ta'riflash mumkin. Shu boisdan ham ilmiy paradigma vositasida ilmiy muammolar o'rtaga tashlanadi va uni yechish modeli namoyon bo'ladi. Kognitiv faoliyat deganda esa tilshunoslikning juda katta qismi tushuniladi. Insoniyat paydo bo'libdiki, uning imkoniyatlari kundan-kunga kengayib, rivojlanib bormoqda. Insoniyatning rivoji esa jamiyatni rivojlantiradi.

Ammo, shuni ta'kidlash kerakki, bir narsa bor, jamiyat usiz rivojiana olmaydi. Bu - til. Maqolamizning ushbu qismida jamiyatda asosiy muloqot vositasi hisoblangan tilning ahamiyati, tilshunoslikning yangi tarmog'i hisoblangan antroposentrik paradigm va unda kognitiv tilshunoslikning o'rni va olimlarning turli xil yondashuvlari kabi masalalar muhokama qilinadi. "...Biz odamlar bir-biri bilan muloqot qilish orqali qimmatli ma'lumotlar, bilim, e'tiqod, fikr, istak, tahdid, buyruq, minnatdorchilik, va'da kabi tuyg'ularni izhor eta olamiz. Mimikalar yordamida o'yinkulgi, hurmatsizlik, zavq, ma'qullash yoki achchiq tuyg'ular, g'azab, hayajon yoki qo'rquvni ifoda eta olamiz. Ammo, til – butun bir jamiyatni jipslashtirish, vaholanki, parchalab barbob qilish qudratiga egadir".

Til orqali yuksak bilimlar avloddan avlodga o‘tib kelmoqda va asrdan asrga sayqallanib bormoqda. Har bir fanda bo‘lgani kabi tilshunoslikda ham har bir davrda yangi sohalar kirib uning ichki salohiyatini yanada ochib bermoqda. Til bilan tafakkur uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.... “Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek, til ham tafakkursiz bo‘lmaydi”.

Bugungi kunda tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan antroposentrik yo‘nalishlar va kognitiv tilshunoslik kundan kunga o‘sib rivojlanishda davom etmoqda. Bunga turki bolgan assosiy sabab o‘tkan asrlardan buyon olimlar tomonidan lisoniy faoliyat va til tizimini chuqur o‘rganish, har ikkisiga xos bo‘lgan hodisalarning belgi xususiyatlarini bat afsil yoritish uchun tilshunoslikdagi turli sohalarni biriktiradigan va barcha yo‘nalishlari uchun birdek xizmat qiladigan “tayanch” g‘oyani topish muammosi dolzarbligicha qolganligida edi.

Kognitiv tilshunoslik inglizcha cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Tilga bo‘lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o‘z tuzilishiga ko‘ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi”. Shunday ekan, kognitiv tilshunoslik inson tomonidan bevosita va bilvosita sodir bo‘ladigan, bilish jarayoniga oid hodisalarni tartibga tushirib berishga katta turki bo‘ladi. Til birliklari morfema, leksema, sintaksema, frazema, frazeoyema, sentensema, tekstema sifatida tartiblanadi.

Kognitivlikning olam manzarasi bilan bog‘liqligi esa quyidagicha ta’riflanadi.

Ong va fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan har qanday odam albatta bir kun kelib o‘ziga-o‘zi bu dunyo qanday tuzilgani, Yer, Quyosh va koinot nimalardan iborat ekani haqida savol beradi. Bunday savollar eng uzoq ajdodlarimizdan boshlab

bizning davrimizda ham deyarli hammaning fikrini bir necha bor egallagan. Bashariyat taraqqiyoti asnosida odamlar borliq tuzilishi haqidagi tasavvur va bilimlarini boyitib bordi. Natijada uzoq ajdodlarimiz dunyoni shunchaki okean o‘rtasida joylashgan yassi Yer ko‘rinishida tasavvur qilgan bo‘lsa, sivilizasiyaning hozirgi bosqichida endi biz multivers nazariyasiga ham yetib keldik.

Olam kognitiv tilshunoslik nazariyasiga ko‘ra bir necha ma’nolarda kelishi mumkin:

Olam – ma’naviy dunyo

Misol uchun: Olam olma, odam ol (maqol).

Olam – yaratuvchi

Aziz Olam, men sendan zerikkanim uchun seni tashlab ketayotirman. Yetarlicha yashagandekman. (George Sanders)

Olam - Jaxon, dunyo

Olam toza bo‘lganida edi, san’at bo‘lmasdi. Taqdir jazo emas. (Albert Camus)

Birgina maqolning o‘zida ogohlantirish, tahqiq, tasalli, maslahat, tanqid, tahdid kabilar jamlangan bo`lishi mumkin, maqollar xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma’lumotlar taqdim etadi. Ularda xalqning miflari, odatlari, marosim va rasm-rusumlari, ma’naviyati haqidagi qarashlari o‘zgarmay saqlangan bo’ladi. Tilshunoslar maqollar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o‘z davri ideologiyasini aks ettiradi deb fikrlashlari, albatta, ayni haqiqat.

Misol uchun:

While there is life, there is hope.

Ushbu ingliz maqoli sodda va barcha uchun tushunarli so’zlar bilan yaratilgan va o’zbek tiliga so’zma-so’z tarjima qilinganda “Hayot bor joyda, umid bo’ladi” ma’nosiga ega bo’ladi. Ammo o’zbek lingvokulturologiyasi uni boshqacha talqin etadi, ya’ni “shayton” obrazi bilan bog’laydi.

Noumid — shayton.

Islom dini ta’limotiga ko’ra, inson zoti borki, hamisha umiq qilib yashaydi, faqat shaytongina Allohdan hech narsa umid qilmaydi. Bu maqol orqali umidsiz inson shaytonga o’xshatiladi.

Shunday qilib, olamning manzarasini o’rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o’zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog’liqdir. Olam manzarasi, insonlarning olam bo'yicha tushunchasi ba'zida ularning turmush-tarziga qarab turib turlicha, ba'zida esa o'xhash bo'lishi ham mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимова, С. Х. (2022). Прагматический Анализ Иллокутивного Акта «Выражение Отказов». *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 276-282.
2. Гердер И. Г. Идеи и философия истории человечества. –М., 1977. –С. 233.
3. Дадабаева, Ш. (2021). ҚИЁСЛАШ МАЗМУНИНИГ СОДДА ГАПЛАР ДОИРАСИДА ИФОДАЛАНИШИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 45-45.
4. Маматов А. Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишилаб ўтказилган илмий -амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С.60.
6. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.
7. Хошимов Г. М. К теории концептов и их таксономики в когнитивной лингвистике // Системструктур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70йиллигига багишлиланган Республика илмийназарий конференцияси материаллари. –Самарқанд, 2010.
8. Mirzayeva, D., & Sanginova, D. (2022). CONTEXTUAL MEANING OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK

LANGUAGES AND FEATURES OF TRANSLATION ISSUES. *Science and Innovation*, 1(6), 820-824.

9. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA KO ‘P MADANIYATLI TA’LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG ‘RIKENGLIK SHAKLLARI. *O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 967-971.
10. Suhrob Bo‘ronov. O‘zbekiston geosiyosati (o‘quv qo‘llanma). Toshkent: «EFFECT-D», 2021 — 220 bet.
11. What is language! Carlos Santana. Department of Philosophy, University of Utah. 2016, 501p
12. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi Respublika bolalar kutubxonasi sayti."Til va tafakkur".
13. Ubaydullayeva, D., & Raxmonqulova, M. (2022). TILSHUNOSLIKDA IJTIMOIY YO’NALISHNING TARAQQIYOTI. *Science and innovation*, 1(B6), 869-873.